



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 30-noyabr, № 255 (8597)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



SUVNI TEJASH BO'YICHA FAVQULODDA ISH TIZIMIGA O'TILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-noyabr kuni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining 20 foizi o'zimizda, katta qismi qo'shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib bormoqda. Transchegaraviy daryolarni boshqarish bo'yicha vaziyat ham jiddiy. Bularning ta'sirida 2030-yilga borib yurtimizdagi suv tanqisligi 15 milliard kub metrga yetishi prognoz qilinayпти.

Lekin shu holatda ham suvdan samarasiz foydalanilyapti. Mamlakatimizdagi jami suv resursining 90 foizi qishloq xo'jaligida sarflanyapti. Masalan, yurtimizda bir gektar paxta maydonini sug'orish uchun yiliga 10-11 ming kub metr suv sarflangani holda iqlimi va yeri biznikiga o'xshash mamlakatlarda bundan 2-3 baravar kam suv ishlatilyapti. U ham bo'lsa, suvni to'g'ri boshqarish, isrof qilmaslik hisobiga.

Suv xo'jaligiga har yili o'rtacha 1 milliard dollar mablag' yo'naltirilmoqda. Bu soha budjetdan mablag' olish bo'yicha ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligidan keyin 4-o'rinda turadi. Ammo tizimda hisob-kitob to'g'ri yo'lga qo'yilmagani, suv resurslarini boshqarishda eskicha yondashuvlar saqlanib qolgani uchun samara kam.

Yig'ilishda bu sohadagi muammolar, yangi tashabbus va vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishini ta'kidladi.

Bunda birinchi muhim vazifa — kanal va ariqlarni betonlash. Hisob-kitoblarga ko'ra betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o'rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo'lyapti. Eng

ko'p suv yo'qotishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Navoiy, Xorazm va Buxoro viloyatlariga to'g'ri keladi. Kanallarning oxirida joylashgan 175 ming gektar ekin maydonida suv ta'minoti juda og'ir.

Umuman, suv yo'qotishlar oqibatida iqtisodiyotimizda yiliga 5 milliard dollar daromad boy berilyapti. Shu bois suv xo'jaligida "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" e'lon qilindi. Kelgusi yilda 1 ming 500 kilometr, ya'ni bu yilgiga nisbatan 4 barobar ko'p yirik kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. 2025-yildan boshlab kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o'tiladi.

Buning uchun noyabr — mart oylari eng qulay vaqt ekani, loyihasi tayyor kanallarda qurilishni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi. Viloyat va tuman hokimlariga bir yil ichida 3 ming 500 kilometr ichki tarmoqlarni beton qoplamaga o'tkazish topshirildi. Bundan manfaatdor klaster va fermerlarga maxsus texnika va qurilish materiallaridan yordamlashib, xarajatlarni 2 karra kamaytirish mumkinligi aytilди.

Ikkinchi muhim vazifa — suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish.

Mamlakatimizda 4,3 million gektar sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 30 foiziga suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Bunday klaster va fermer xo'jaliklarida suv 30 — 40 foizga, o'g'it va yoqilg'i 25 — 30 foizga tejaliishi bilan birga hosildorlik oshgan.

Lekin suv yetkazish tannarxi juda qimmat bo'lgan Qashqadaryoda bunday usulda sug'oriladigan yerlar atigi 16

foizni tashkil etadi. Suv tejashda eng soddа agroteхnik tadbir bo'lgan yerni lazerli tekislash ishlari ham yetarli emas. Bunday maydonlar Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida 10 foizdan kam.

Buning sabablaridan biri — suv tejovchi texnologiyani joriy qilgan fermerlarga kredit foizining bir qismini qoplash tartibi ishlamaypti. Shu bois yig'ilishda bu bo'yicha yangicha moliyalashtirish tizimi belgilandi. Unga ko'ra klaster va fermerlarga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yilga 14 foizli kredit ajratiladi. Buning uchun ochiq-oshkora platforma ishga tushiriladi. Ham bank bilan, ham ta'minotchilar bilan shartnoma elektron platforma orqali onlayn imzolnadi.

Mutasaddilarga buning moliyaviy-tashkiliy jihatlarini bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Suv tejash joriy etilgan maydonlarni har yili kengaytirib borish, Turkiya, Ispaniya va Xitoyning bu bo'yicha tajribasini o'rganish muhimligi ta'kidlandi.

Kelgusi uch yilda ham qishloq xo'jaligi texnikasining 15 foizi va lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettiriladi. 2026-yilgacha hamma ekin yerlari lazerli tekislanadi. 2026-yildan keyin lazerli tekislanmagan yerlarga nisbatan yer va suv soliqlari keskin oshiriladi.

Uchinchi muhim vazifa — suvni yetkazish xarajatlarni qisqartirish.

Bugungi kunda klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har 1 kub metr suvga o'rtacha 212 so'm xarajat

qilinaypti. Lekin Buxoro, Qashqadaryo va Namanganda bu 2-3 barobar qimmat.

Shu bilan birga, suv xarajatining 63 foizi nasos stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, sug'orish uchun yiliga 7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanadi. Chunki suv nasoslarining 80 foizi eskirgan, energiya sarfi yuqori.

Davlatimiz rahbari bu xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishning eng to'g'ri yo'li — nasoslarni modernizatsiya qilish va ularni boshqarishni xususiy sheriklikka berish ekanini ta'kidladi.

Bu borada bir nechta loyiha boshlangan. Bu ishlarni jadallashtirib, xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokida 95 ta nasos stansiyasini yangilash, kelgusi yil boshida yana 118 tasi bo'yicha tender e'lon qilish vazifasi qo'yildi.

Shu bilan birga, xorijiy kompaniyalar 268 ta nasosni boshqaruvga olish tashabbusini bildirgan.

Umuman, ushbu choralar orqali kelgusi yili nasoslarning elektr sarfini 300 million kilovatt-soatga, keyingi uch yilda esa 1,5 milliard kilovatt-soatga kamaytirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Suv xo'jaligi vazirligiga xalqaro moliya tashkilotlari bilan birga nasoslarni modernizatsiya qilish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqish topshirildi. Sohada zamonaviy boshqaruvni joriy etish, suv hisobini yuritish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda Suv xo'jaligi vaziri, hokimlar va boshqa rahbarlarning axboroti eshitildi.

O'ZA.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA PREZIDENTLARI OLIY DARAJADAGI KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILDILAR

29-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi dolzarb masalalar, shu jumladan, joriy yil 5 — 7-oktabr kunlaridagi Rossiya Federatsiyasiga oliy darajali tashrif chog'ida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko'rib chiqildi.

Yetakchilar O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib, ko'p qirrali hamkorlik kengayib borayotganini qayd etdilar.

O'zaro tovar ayirboshlash ko'r-

satkichlarining o'sish sur'ati saqlanmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, hududlararo aloqalar rivojlanmoqda. Kuni kecha Jizzax viloyatida birgalikda tashkil etilgan yirik agrologistika majmuasi ishga tushirildi.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlari madaniy-gumanitar almashinuv faol kechayotgani hamda sog'liqni saqlash sohasida dasturlar amalga oshirilayotganini ham olqishladilar.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN BAADA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan 30-noyabr — 2-dekabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha konferensiyasida ishtirok etish uchun Dubay shahrida bo'ladi.

Iqlim bo'yicha global sammitda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarining davlat va hukumatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar rahbarlari qatnashadi.

Tadbir kun tartibidan BMТning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi asosiy qoidalarini amalga oshirish, bugungi ekologik tahdid va xatarlarga qarshi kurashish, "yashil" taraqqiyot maqsad va vazifalarini ilgari surishda keng

hamkorlik masalalari o'r'in olgan. Davlatimiz rahbari sammitning yalpi sessiyasida nutq so'zlashi hamda qator ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o'tkazishi kutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi BMТning Hadli konvensiyasiga 1993-yilda qo'shilgan, 2018-yilda mamlakatimiz Parij bitimi ishtirokchisi bo'ldi.

O'ZA.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARIGA DAXLDORLIK HISSI BILAN YONDASHILDI

Kuni kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi, aksariyati qabul qilinib Senatga yuborildi. Shuningdek, deputatlar aholiga sifatli telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan raqamli texnologiyalar vaziri javobini muhokama qilish barobarida tegishli mutasaddilarga parlament so'rovi yuborishga oid masalalarni ham ko'rib chiqdi. Deputatlar har bir masala muhokamasiga daxldorlik hissi bilan yondashdi.

Aholiga sifatli telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi xalq vakillari nazoratida

Majlisda deputatlar aholi yashash punktlarini telekommunikatsiya xizmatlari bilan qamrab olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Raqamli texnologiyalar vaziri Sh. Shermatovning Qonunchilik palatasining parlament so'roviga javobini muhokama qildi.

Keyingi yillarda aholi yashash punktlarini telekommunikatsiya xizmatlari, jumladan, optik tolali aloqa va yuqori tezlikdagi internet jahon axborot tarmog'i bilan qamrab olish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.



Mushohada

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI

Ma'lumki, BMТning Barqaror rivojlanish maqsadlari dunyoda barcha turdagi qashshoqlik va ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligiga va yaxshi ovqatlanishga erishish, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilar farovonligiga ko'maklashish, umumqamrovli va adolatli sifatlari ta'limni kafolatlash, umri davomida ta'lim olish imkoniyatini berish, gender tenglikka erishish va xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish hamda boshqa qator vazifalarni qamrab olgan bo'lib, O'zbekiston bu boradagi majburiyatlarini muvaffaqiyat bilan bajarib kelmoqda.



Muloqot

O'ZARO ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQILDI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Bangladesh Xalq Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Muhammad Monirul Islomni qabul qildi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston va Bangladesh hamkorligining barcha yo'nalishi, xususan, savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-gumanitar, ayniqsa, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki davlat parlamentlari hamkorligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tomonlar O'zbekiston va Bangladesh qonun chiqaruvchi organlari hamkorligini

yanada rivojlantirish, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda parlament nazorati imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalariga e'tibor qaratdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarga ustuvor masala sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada o'zaro _ovar ayirboshlash hajmi 2023-yilning birinchi yarim yilligida o'tgan

yilning mos davridagiga nisbatan ikki barobar o'sdi. Shunday bo'lsa-da, uchrashuvda erishilayotgan ko'rsatkichlarni yana bir nechta barobar oshirishga imkoniyatlar yetarli ekani aytib o'tildi.

O'z navbatida, ikki davlat savdo-sanoat palatalari o'rtasida aloqani kuchaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish hamda sanoat mahsulotlarining ko'rgazma va yarmarkalarini tashkil etishni amalga oshirishni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqarish taklifi ilgari surildi.

Shuningdek, O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalarda

to'qimachilik klasterlari va ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirish, farmatsevtika sohasida davlatlarimiz keng salohiyatidan kelib chiqib, qo'shma loyihalarni amalga joriy qilish yuzasidan fikr almashildi.

Muloqot davomida madaniy-gumanitar aloqalarni, ayniqsa, madaniyat va ziyorat turizmi sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida diplomat o'zaro munosabatlarning bundan keyin ham yanada rivojlanishi uchun bor imkoniyat va salohiyatni ishga solishini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Bizning suhbat

XALQ TABOBATI

ASRIY AN'ANALAR ZAMONAVIY MEZONLAR ASOSIDA TARAQQIY ETMOQDA

Asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq tabobati xususida so'z ketganda u xalqimiz tarixi, madaniyati, o'ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini singari ko'hna hamda noyob ekanini e'tirof etish o'rindir.

Dunyo tib ilmi sultoni Abu Ali ibn Sino yurtida boshqacha bo'lishi ham mumkin emas-da, axir. Bugun mamlakatimizda ajdodlardan meros tabobat ilmi, asriy an'analirimiz zamonaviy mezonlar asosida rivojlantirilayotgani juda ham quvonarli. Boisi xalq tabobati zamonaviy tibbiyotga asos solinishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham bu ikki mustarak sohani aslo bir-biridan ajratish mumkin emas.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan keyingi yillarda mamlakatimizda barcha soha qatori tibbiyot, xalq tabobati ham zamonaviy mezonlar asosida jadal rivojlanyapti. Shu bilan birga, yurtimizning hamma hududi, xususan, Andijon viloyatida keng ko'lamli hayotbaxsh islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday e'tibor va rag'bat tufayli viloyatning Jalaquduq tumanida ham quvonarli yangilanish va o'zgarishlar ko'zga tashlanyapti. Tumanning olis qishlog'ida xalq tabobati zamonaviy tibbiyot bilan hamohang tarzda yuksalishiga erishilyapti.

O'zbekiston tibbiy-ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar Tabobat akademiyasi raisi, kimyo fanlari doktori, professor Ibrohim ASQAROVdan mamlakatimizda keyingi yillarda yuz berayotgan o'zgarishlar, xususan, tibbiyot tizimida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, shuningdek, kasalliklar profilaktikasida xalq tabobatining ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalarini yozib oldik.

Umdsiz dil jahonda kam yaralgan

— Mamlakatimizdagi surat va siyrat yangilanishlarini har bir sohada ko'rishimiz mumkin, — deydi Ibrohim Asqarov. — Bugun shaharu qishloqlarimiz qiyofasi ham, odamlarimizning turmush tarzi

ham butunlay o'zgarib bormoqda. Sharoitlar yaratilgani, tizim har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani saqlash tizimi mutlaqo yangi xalqimiz dahosi yaratgan ezu andozalar, o'ziga xos yondashuvlar qadriyatlarini qayta tiklashga, uni asosida rivojlantirilayotgani xalqni yangicha mazmun bilan boyitishga rozi qilishda muhim o'r'in tutmoqda.

Jumladan, xalq tabobatining eminerkin taraqqiy etishi uchun qulay sharoitlar yaratilgani, tizim har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani saqlash tizimi mutlaqo yangi xalqimiz dahosi yaratgan ezu andozalar, o'ziga xos yondashuvlar qadriyatlarini qayta tiklashga, uni yangicha mazmun bilan boyitishga hissa qo'shayotir.



QONUNCHILIK PALATASI QOʻMITALARIDA

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi tomonidan Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchilari va kursantlari ishtirokida “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — strategik islohotlarning huquqiy poydevori” mavzuida davra suhbatlari oʻtkazildi.

Tadbir ishtirokchilariga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi ijrosi doirasida mamlakatimizda olib borilayotgan oʻzgarish va yangi-lanishlar haqida keng maʼlumotlar berildi.

Davra suhbatida Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlaka-timizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaning holda bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani ham qayd etib oʻtildi.

— Qonunchilik palatasida uyushtirilgan davra suhbatlari bizda katta taassurot qoldirdi, — deydi Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchisi Xudoybergali Meliboyev. — Sababi biz quyi palataning ish faoliyati, qonunlarni qabul qilish jarayoni bilan ya-qindan tanishdik. Xususan, palata majlisida ishtirok etib, qonun loyihalaridagi har bir normaning qizgʻin muhokamalarga sabab boʻlishiga guvoh boʻldik. Oʻylaymanki, olgan taassurot va bilim-larim kelgusi faoliyatimga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy islohot-lar qoʻmitasi hamda Senatning Budget va iqtisodiy islohot-lar masalalari qoʻmitasi tomonidan “Barqaror rivojlanish maqsadlari global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish” mavzuida xalqaro ekspertlar ishtirokida tadbir oʻtkazildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsad va vazifalarining 2030-yilgacha boʻlgan davra amalga oshirilishini taʼminlash, sohada parlament va jamoatchilik na-zoratini oʻrnatish, mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi mu-him hujjatlar va davlat dasturlarini roʻyobga chiqarish Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uygʻunlikni taʼminlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Unda deputatlar fan va innovatsiyalar sohaslarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, texnologiyalar va innovatsiyalarni rivo-jlantirish hamda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari monitor-ingi boʻyicha statistikani takomillashtirish va boshqa bir qancha masalalarni atroflicha muhokama qildi.

Tadbirda mahalliy va xalqaro ekspertlar tomonidan global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish borasidagi saʼy-harakatlarni yanada jadallashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qoʻmitasi ham-da Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasining kengaytiril-gan yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda deputatlar “Xalqaro munosabatlar doirasida amal-ga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar yakunlari boʻyicha erishilgan kelishuvlar va imzolangan “yoʻl xaritalari”ning ijro etilishi holati toʻgʻrisida”gi masala yuzasidan mutasaddi vazirliklarning axborotini eshitdi.

Muhokamalar davomida qoʻmitalar aʼzolari kun tartibidagi masala yuzasidan vazirliklar tomonidan amalga oshirilgan keng koʻlamli ishlarni eʼtirof etish bilan birga, ijrosi kechikayotgan ay-rim masalalar boʻyicha tegishli taklif va tavsiyalar berdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Parlament axborot markazi.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA “OʻZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI

Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida alohida taʼkidlab oʻtilganidek, “Oʻzbekiston — 2030” taraqqiyot strategiyasi BRMga uygʻunligi bilan ajralib turadi. Ayni kengʻda yangi Oʻzbekistondagi islohotlar falsafasi ham “inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi” hamda 2030-yilgacha mamlakatning barcha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini taʼminlash gʻoyalari-ga toʻla asoslangan.

Aytish joizki, oʻtgan davr mobaynida bu borada mamlakatimizda keng koʻlamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, BRMga doir vazifalar yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 360 dan ziyod qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda oʻz ifodasini topdi. Masalan, tashabbuskori va muallifi koʻp millatli xalqimiz boʻlgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga BRMga oid qator normalar kiritildi.

Birinchidan, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizning 14, 49, 103-moddalarida ilk bor barqaror rivojlanish tamoyili aks ettirildi. Ikkinchidan, oʻta qashshoqlikka barham berish va barcha joyda aholining kam taʼminlanganlik darajasini pasaytirishni nazarda tutuvchi normalar Konstitutsiyamizning 1, 57, 115, 122-moddalariga kiritildi.

Uchinchidan, Asosiy Qonunning 46-moddasida har kim qariganda, mehnat qobiliyatidan mahrum boʻlganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yoʻqotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy taʼminot huquqiga egaligi, pensiya, nafaga va boshqa turdagi ijtimoiy yordam miqdorlari rasman belgilangan eng kam isteʼmol xarajatlardan oz boʻlishi mumkin emasligi muhrlab qoʻyildi.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan 100 maqsad, 369 chora-tadbir, 190 vazifa, 306 maqsadli koʻrsatkich bajarilishi mamlakatimizning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Yaʼni mazkur strategiya doirasida joriy yilda qabul qilinishi rejalashtirilgan 25 ta qonun, Prezidentning 39 ta Farmon va qarori, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar BRMga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asosi vazifasini oʻtadi.

Soʻz yuritilayotgan strategiyaning birinchi yoʻnalishi har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Birgina ushbu birinchi yoʻnalishning oʻzida BRMga uygʻun bir qator ustuvor vazifalar belgilangan boʻlib, bu borada koʻlamli saʼy-harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Muhimi, salmoqli natijalarga erishilayotir.

Aholi turmush darajasini oshirishga doir siyosat tufayli yurtimizda kambagʻallik 2022-yilda 2017-yildagiga nisbatan ikki barobar kamaygan boʻlsa, uni 2026-yilga qadar yana 2 barobar, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish koʻzda tutilgan.

Kambagʻallikka tushish xavfi mavjud 4,5 mln. aholining daromadlarini oshirish choralari koʻrilishi, mehnatga layoqatli aholini, jumladan, yoshlar va nogironligi boʻlganlarning barqaror va samarali bandligini taʼminlash orqali ishsizlik darajasini 2030-yilga borib 7 foizgacha tushirish reja qilingan.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha:

■ ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasini toʻliq qamrab olish, tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini tashkil qilish;

■ nogironligi boʻlgan muhtoj shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan taʼminlash darajasini 100 foizga yetkazish, ularni reabilitatsiya xizmatlari bilan qamrab olish, munosib ish bilan taʼminlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish;

■ xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikka erishish orqali ularning boshqaruv lavozimlaridagi ulushini 30 foizga koʻpaytirish. Shuningdek, “ayollar daftri” bilan manzilli ishlash shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar boʻyicha jamoatchilik nazoratini oʻrnatish;

■ 2 mln. nafar fuqaroni kasb-hunar, tadbirkorlik koʻnikmalari, chet tillar va kasb-hunarga oʻqitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish kabi maqsad va vazifalar belgilangan.

Bu kabi misollarni “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining boshqa yoʻnalishlaridan ham keltirish mumkin.

Ayoniki, milliy siyosat va dasturlar ijrosini parlament va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokisiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Shu bois ham yurtimizning milliy maqsadlari amalga oshirilishini nazorat qilish, fuqarolar va davlat organlari

taʼminlash yuzasidan koʻrsatmalar berilgan.

Shu bilan birga, oʻzbek tilidagi 10 mingga yaqin atamalar, ularning taʼriflari hamda shu atamalarning ingliz va rus tilidagi muqobillari keltirilgan “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lugʻati” ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, oʻzbek tilining izohli, imlo va sohalarga oid lugʻatlari maʼlumotlar bazasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini taqdim etuvchi “tahrirlovchi.uz” loyihasi amaliyotga tatbiq etilgan, “my.gov.uz” portalida “Oʻzbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash” xizmati ishga tushirilgan.

Parlament soʻrovini tayyorlash doirasida Qonunchilik palatasining tegishli qoʻmitasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan qator chora-tadbirlar belgilab olingan edi. Shulardan biri yaqinda quyi palataga Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan “Telekommunikatsiyalar toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi hisoblanadi.

Qonun loyihasiga koʻra endi aholi uchun turarjoylar qurilishida zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi majburiy boʻlishi belgilanmoqda.

Taqdim etilgan maʼlumotlarni tahlil qilar ekan, deputatlar aholiga sifatli telekommunikatsiya xizmatlarining taqdim etilishi ularning davlat xizmatlaridan faol foydalanishlari, elektron tijoratni amalga oshirishlari hamda oʻzlari uchun zarur boʻlgan axborotni izlashlari, olishlari va tarqatishlari singari konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarining taʼminlanishiga xizmat qilishini taʼkidladi.

Bosh vazir oʻrinbosariga parlament soʻrovi yuborildi

Majlisda Bosh vazir oʻrinbosari J. Xodjayevgga “Eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam koʻrsatish, “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturini bajarish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida” Qonunchilik palatasining parlament soʻrovini yuborish haqidagi masala koʻrib chiqildi.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda eksportni ragʻbatlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida tizimli ishlar uddalanmoqda.

Prezidentimizning joriy yilda tadbirkorlar bilan oʻtkazgan ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni bajarish boʻyicha “Yoʻl xaritasi”da “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi doirasida korxonalar sonini 500 taga yetkazish, eksportchi korxonalarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashni izchil davom ettirish, ular moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan edi. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida esa milliy iqtisodiyotning

eksport potentsialini kuchaytirish va uning tarkibida qoʻshilgan qiymati yuqori boʻlgan mahsulotlar ulushini yanada oshirish bilan bogʻliq masalalarga alohida eʼtibor qaratilgan.

Yuqorida belgilangan vazifalar doirasida joriy yilning 9 oyida jahon bozorlari va logistikadagi murakkabliklarga qaramay mahsulotlar eksporti (maxsus eksportsiz) 12,0 mlrd. dollarni, oʻsish 106,1 foizni tashkil qilgan. Eksport faoliyatiga 2002 ta yangi korxona jalb etilib, ular tomonidan 700 mln. dollarlik mahsulotlar xorijga chiqarilgan. Bu boradagi faoliyatni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha 515 mlrd. soʻmlik moliyaviy yordam koʻrsatilgan.

Shu bilan birga, eksportchi korxonalarga koʻrsatilayotgan tashkiliy-moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish, mahalliy korxonalarga mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarishda doimiy maslahat koʻmagi koʻrsatib borish, eksport koʻrsatkichlarini yaxshilash boʻyicha muammolar tahlili va ularga yechim izlash ishlarni izchillik bilan jadallashtirish zarurati mavjud.

Xususan, “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturining bosqichma-bosqich 200 ta eksportchi korxonani qoʻshimcha qoʻllab-quvvatlash va ularni ragʻbatlantirish orqali amalga oshirilishi belgilab qoʻyilgan. Lekin hozirgi kunda dasturga kiritilgan va moliyaviy yordamlardan foydalanish imkoniyatiga ega eksportyor korxonalari soni 114 tani tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, potentsial eksport bozorlarini aniqlash, mahalliy eksportyor korxonalarining mavjud nisbiy ustunliklardan foydalanish darajasini oshirish, Yevropa davlatlariga “GSP+” tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish boʻyicha 6200 turdagi mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlaridan toʻlaonli foydalanilyapti, deb boʻlmaydi.

Shundan kelib chiqib majlisda eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam koʻrsatish, “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturini bajarish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Bosh vazir oʻrinbosari J. Xodjayevgga parlament soʻrovi yuborildi.

Fuqarolarni daromadli mehnat bilan band qilish — muhim vazifa

Deputatlar, shuningdek, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Musayevga “Hududlarda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar toʻgʻrisida” Oliy Majlis Qonunchilik palatasining parlament soʻrovini yuborish haqidagi masalani koʻrib chiqishdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 43-moddasida davlat fuqarolarning bandligini taʼminlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambagʻallikni qisqartirish choralari koʻrishi

alohida ifodalangan.

Keyingi yillarda bandlik sohasidagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida Mehnat kodeksi, 4 ta qonun, Prezidentimizning qator Farmon va qarorlari qabul qilindi. Davlatimiz rahbari raisligida videoselektor yigʻilishlari oʻtkazilib, ularda mazkur yoʻnalishda amalga oshirilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bandlik sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, aholining mehnat huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslarini mustahkamlash hamda bandlik koʻrsatkichlarining ijro etilishi ustidan taʼsirchan parlament nazoratini oʻrnatish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ham muayyan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joylarda oʻtkazilayotgan nazorat-tahlil tadbirlari hududlarda bandlik dasturlarining imzolashini va ularning ijrosini taʼminlash, fuqarolarni kasbga oʻqitish va qayta tayyorlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish borasida sezilarli natijalarga erishilayotganini koʻrsatmoqda.

Oʻrganishlar yakuni tahlil qilinganda mazkur yoʻnalishdagi ishlarni izchil tashkil etish hamda natijadorlikka erishish borasida Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlarda qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, hududlarda aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ish beruvchilarni moliyaviy ragʻbatlantirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida ajratiladigan 30 dan ortiq subsidiya turlarining ayrimlaridan samarali foydalanilmayotgani maʼlum boʻldi. Masalan, Samarqand viloyatida ish oʻrinlarini nogironligi boʻlgan shaxslarga moslashtirish, kasbga tayyorlash va malakasini oshirish, qishloq xoʻjaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida kiritish hamda tomorqa yer maydonlariga yengil konstruksiyali issiqxonalar oʻrnatish, sugʻorish vositalarini xarid qilish uchun tadbirkorlarga ajratiladigan subsidiya turlaridan yetarlicha foydalanilmagan.

Bundan tashqari, joylarda investitsiya loyihalarini doirasida ish oʻrinlari yaratilganlik holatini ham talab darajasida, deb boʻlmaydi. Misol uchun, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida 2023-yilning avgust oy i holatiga huddudiy investitsiya loyihalarini manzilli roʻyxatiga kiritilgan 76 ta loyihaning 32 tasi ishga tushirilgan. Qolaversa, ayrim monomarkazlar va ularning filiallari, kasb-hunar markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga oʻqitish maskanlarida yaratilgan sharoitlardan toʻliq foydalanilmayapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, majlisda ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasidagi ishlar samaradorligi hamda 2023-yilda aholi bandligini taʼminlash dasturlarining bajarilishi yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Musayevga parlament soʻrovi yuborildi.

“Xalq soʻzi”.

MILLIY MANFAAT VA VAZIFALAR IJROSIDA MAS’ULLIK

Bugun poytaxtimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik boʻyicha ikkinchi global forum boʻlib oʻtdi. Unda parlamentlararo tashkilotlar va yuzga yaqin davlatlar parlamentlari rahbarlari, parlamentlar doʻstlik guruhlari, xalqaro tashkilotlar, yetuk ekspert va mutaxassislar, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etishi koʻzda tutilmoqda.

Fikr

Albatta, ushbu nufuzli tadbir parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash, dolzarb masalalarni hamijahatlilikda koʻrib chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish joiz, hozirgi vaqtda Oʻzbekiston bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti oʻrtasida 140 ga yaqin qoʻshma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Qolaversa, mamlakatimiz tomonidan inson huquq va erkinliklari kafolatiga doir 30 dan ortiq tashabbuslar ilgari surilgan. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi esa BRM bilan toʻliq hamohang boʻlib, uning asosida yurtimizda barcha fuqaro turmush darajasi va farovonligini taʼminlash boʻyicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shubhasiz, bunda davlatimiz rahbarining inson qadriini ulugʻlash, xalq farovonligini oshirishga qaratayotgan eʼtibori muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Oʻz navbatida, “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan 100 ta maqsad BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uygʻunligi eʼtiborga molik. Barqaror rivojlanishning maqsadi keng miqyosli masalalarni, yaʼni sogʻliq va farovonlikdan tortib to iqlim oʻzgarishlarigacha, gender tenglikdan tortib, isteʼmol va ishlab chiqarish modellari oʻzgarishlarigacha boʻlgan jarayonni qamrab olgan.

Jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyat hayotidagi faoliyatini kuchaytirish masalasi ham oʻrin olgan. BRMning ushbu maqsadini amaliyotga tatbiq etish imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini roʻyobga chiqaradi va albatta, fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining rolini kengaytirish, jamiyatimizning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi oʻrni yanada oshiradi.

Aytish oʻrinliki, mamlakatimizda olib borilayotgan budget siyosatining 70 foizi BRMga qaratilgan boʻlib,

Tursinoy MURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ULARNI HUJJATLASHTIRISH QAY AHVOLDA?

yurgan yurtdoshlarimiz kam emassdi.
Xo'sh, o'tgan davr mobaynida bu
yo'nalishda qanday ishlar bajarildi?
— Belgilangan vazifalar ijrosini
ta'minlashga qaratilgan ko'plab huquqi
hujjatlar qabul qilindi va shular asosida
aholining turarjoyiga mulk huquqini
e'tirof etuvchi hujjatlarni berish bo'yicha
qat'iy amaliy ishlar olib borilmoqda,
— deydi Kadastri agentligining Davlat
kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston
Respublikasi boshqarmasi boshlig'i

sardor Urumbayev. — Bu borada shu yilning 28-iyulida Prezidentimizning “Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda jismoniy shaxslar tomonidagi qirg‘ilgan uy-joylarga bo‘lgan huquqlarini e‘tirof etish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda uning ijrosini ta‘minlash mexanizmlari yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va Vazirlar Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi hamda amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Ta‘kidlash kerakki, Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, ya‘ni uy-joylarning mulk huquqlarini e‘tirof etishiga oid tegishli hujjatlari bo‘lmagan har bir ko‘chmas mulk obyekti haqidagi ma‘lumotlarni “UzKad” axborot tizimiga kiritish zarurati mavjud edi. Bu axborotlarni sifatli kiritish maqsadida namuna sifatida Xo‘jayli va Taxiotosh tumanlari tanlab olinib, hozirgi kunda

ayta xalovdan o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Hujjatlasiz qurilgan uy-joylarga mulk huquqi, yer uchastkasiga jaraa huquqi berilganligi uchun bir martalik yig'im miqdorini belgilash haqida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tegishli qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatda turgan shaxslar bir martalik yig'imni to'lashdan ozod etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Davlat kadastrlari palatasi hamda Kadastr agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi va Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi rahbarlari ishtirokida Xo'jayli va Taxiotosh tumanlari namunaviy tumanlar sifatida tanlab olinib, hokimliklarda yuqorida keltirilgan hujjatda belgilangan vazifalar keng

muho-kama etilib, alohida shtab tashkil qilingdi. Unga biriktirilgan mas'ullar hududlardagi tashkilot mutaxassislari bilan hamkorlikda uy-joylarni xalqovdan o'tkazish va mulk huquqini e'tirof qilishga olib tegishli hujjatlarni o'rnatilgan tartibda tuman hamma respublika shtablariga taqdim etishaypti.

Bu boradagi ishlarni jadallashtirish hamma sifatli yakunlash maqsadida Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasida hamma Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi boshqarmalarning mutaxassislari ham bugungi kunda hududlardagi uy-joylarni xalqovdan o'tkazish ishlariga jalb qilingan va bu ishlar izchil davom etayotir.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kungacha Xo'jayli tumanidagi 28 ta mahalladan 23 tasi 726 ta va Taxiotosh tumanidagi 14 ta mahalladan 12 ming 837 ta uy-joylarni xalqovdan o'tkazish ishlari olib

borilmoqda. Bu jarayonda hujjati borlar ham, tegishli hujjatlarga ega bo'lmagari uy-joylar ham qayta xatlovda o'tkazilyapti. Yuqorida aytib o'tilganidek, ayni vaqtda mazkur uy-joylarga egalik huquqini beruvchi hujjatlarni tiklat berish uchun ko'chmas mulk obyektlar haqidagi ma'lumotlar "UzKad" axborot tizimiga sifatl kiritilayotir.

Umuman, Farmonda 2024-yil 1-avgustga qadar bu yo'nalishdagi ishlarni sifatl yakunlash nazarda tutilganini hisobga olgan holda boshqarma xodimlari asosiy e'tiborni aholining o'zlari yashab kelayotgan uy-joylarga mulk huquqini e'tirof etishga oid hujjatlarni rasmiylashtirish ishlariga qaratgan. Bu esa minglab aholining yillar davomida hal qilinmay kelayotgan muammosiga chek qo'yadi.

G'ayrat OTAJONOV
(“Xalq so'zi”)

G'ayrat OTAJONOV
(“Xalq so‘zi”)

Abdusattor SODIQOV.

Botir MADIYOROV
 ("Xalq so'zi") yozib oldi.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O’za yakuni — 23.49 Topshirildi — 01.15 **1 2 3 4 5 6**

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O’za yakuni — 23.49 Topshirildi — 01.15 **1 2 3 4 5 6**